



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍnda ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındağı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

QORAQALPOG'ISTON HUDUDIDAGI JOYLASHGAN TARIXIY VA MADANIY YODGORLIKAR TARIXIDAN

S.Allambergenov,

Ajiniyoz nomidagi NDPI

Tarix o'qitish metodikasi

kafedrası assistent o'qituvchisi

Annotatsiya: Qoraqalpog'istonda qadimgi davrlarda vujudga kelgan dastlabki qal'alar tarixini bugungi kundagi ularning o'ziga xos tarixiy ma'lumotlari, arxeologiya, etnografiya, sanaatshunoslik, fol'klorga oid tadqiqotlari asosida bayon etilgan. Qal'a madaniyatining o'ziga xos taraflarini va rivojlanish faktorlari, urbanizatsiya jaryonlari va asrlar davomida shu kunga cha etib kelgan vohadagi tarixiy qal'alar tarixi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: arxeologiya, etnografiya, ekspeditsiya, Fanlar Akademiyasi, ko'hna, YUNESKO, kidaritlar.

So'nggi yillarda O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotida jahon madaniy merosini ommaviylashtirish va uni asrab avaylashga katta e'tibor qaratilmoqda. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'naliishlaridan biridir. Bu borada zamonaviy ilm-fan yutuqlarini joriy qilish, sohaning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, YUNESKO bilan hamkorlikda moddiy madaniy merosini o'rganish, asrab-avaylash va saqlashga qaratilgan aloqalar yuzasidan ilmiy tadqiqot olib borish zaruratin ko'rsatadi. Ayniqsa, mintaqaning moddiy madaniy merosini o'rganishga halqaro tajriba asosida yondashish va uni tadqiq etish muhimligidan dalolat beradi.

Madaniy merosni o'rganishda uslubiy jihatlarni hisobga olgan holda, madaniy meros tushunchasining murakkab va ko'p bosqichli ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Har qanday xalqning va har qanday mamlakatning madaniy merosi, madaniy tizimning uzluksizligini va ijtimoiy-madaniy o'ziga xosligini turli shakllarda – etnik-madaniy, diniy, milliy, davlatda saqlash uchun madaniy omillarning potentsialini to'plash va aktuallashtirish eng muhim shaklidir. U odamlarning tarixiy ongini egallaydi, jamiyatning ko'payishi va rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Janubiy Orolbo'yı qoraqalpoqlarining tarixiy yodgorliklarini o'rganishda arxeolog S.P.Tolstov, sharqshunos P.P.Ivanovlarning hissasi tengsiz bo'ldi. Ular qoraqalpoqlarning tarixini, etnografiyasini, madaniyatini, san'atini birinchi bo'lib ilmiy tadqiq qildi, jahon ilmi ahliga tanishtirdi. XX asrning 70-80 yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining N.Davqaraev nomidagi Tarix, til va adabiyot instituti ilk bor «tarixiy yodgorlik»ning



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍNDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍÑ INTEGRACIYASÍ»

atamasındağı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

to‘plamini tayyorlashga besh yillik reja tuzib oldi. Shu yillarda Qoraqalpog’iston hududidagi mashhur tarixiy qal’alar, tarixiy shaxslar ismiga oid makonlar, muqaddas joylarning ro‘yxati olindi, ba’zi yodgorliklar to‘g’risida maqolalar e’lon qilindi.

Hozirgi kunda respublikamizda turizm sohasini rivojlantirishga bog`ishlangan davlat dasturlari va ilojar amalga oshirilmoqta.

Janubiy Oralbo‘yi Amudaryo deltasida joylashgan ilk o‘rta asr yodgorliklarining biri “Kuyuk kal’a. U Chimboy qal’asidan 48 km shimolda, Kushxona tog’ balandligida joylashgan. 1929 yili etnograf AA Melkov Kuyukkal’adan tanga, kulol idishlarni va 2-4 km g’arbda joylashgan “Qalmoq qal’a” qabiristonidan assuariylarni (to‘rt burchak quti) yig’ib Sank Peterburgdagı “Rus muzeyi”ga toshiradi.

Kuyukqal’a maydoni 46 hektar bo‘lib, u bir qancha qismlardan iborat. Shimoliy bo‘limi 6 hektar u yarim doira shaklidagi devorlar bilan o‘ralgan bo‘lib, unda odamlarning turar joylari uchramaydi. Ammo u yerda qumga aralashgan qora kullar va olov izlari ko‘zga tashlanadi. Bu qal’a VII-VIII asrlarga tegishli esdalik bo‘lib, u Kerder viloyatining markaziy shaharlaridan biri bo‘lgan.[1]

S.P.Tolstov va T.A.Jdankolarning fikrlariga kura Kidaritlar degan so‘zni Amiudaryoning pastki qirg’og’ida joylashgan Kerder davlatining nomidan kelib chiqqan. Bu joyda uzoq yillar davomida Xorazmdan mustaqil ravishda Kerder davlati hukum surganligini ko‘rishimiz mumkin.[2]

Bundan tashqari Xorazmda aholi uy-joylar, kushk va chorbog’lar qurilishida yog’oshdan keng foydalanilgan bo‘lsada, ma’muriy va ijtimoiy ahamiyatga ega me’moriy inshootlar asosan paxsa va g’ishtdan qurilgan. O‘larga yog’ochdan darvoza, eshik, ustunlar taylorlangan va va ular yog’och o‘ymakorligi asosida turli hil naqshlarda bezatilgan. Ularning namunalari XII-XIII asrlarga oid Qavatqal’a, Xiva, Darg’on yodgorliklaridan topilgan.[3]

IV-X asrlar oralig’ida qadimgi Xorazm poytaxti bo‘lib turgan Kat (Firqal’a), hozirgi Beruniy tumani markazi yaqinida joylashgan. Firqal’aning qurilgan davri bilan xorazmliklarning “Afrig va uning avlodi” hukumronligi davrida yangi ijtimoiy tuzum tug’ilishiga vaziyat yaratilgan. Abu Rayhon Beruniy (937-1048) o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” nomli asaridagi ma’lumotlarga ko‘ra, firqal’a o‘q o’tmas mustahkam istehkomli loy va g’ishtdan qurilgan uch devorli qal’a qo‘rg’oni bilan o‘rab olingan.

Qoraqalpog’iston va Xorazm vohasida joylashgan tarixiy va madaniy yodgorliklar judayam ko‘pchilikni tashkil etadi. Qoraqalpog’istonning Ellikqal’a tumanida Tuproqqal’a qurg’oni joylashgan bo‘lib miloddan avvalgi III-II asrlarda



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍNDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ» atamasındağı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

qurilgan bo‘lib, milodimizning IV-V asrlarida qayta tiklangan obidadir. Bu qal'a-shahar miloddan avvalgi III- IV asr boshlarida Xorazm shohlarining qarorgohi bo‘lgan. Tuproqqa'l'a qo‘rg’oni tuzilishi to‘g’ri burchakli (500x350m) bo‘lib, 17,5 ga maydonni egallaydi. Shahar gumbazsimon yulakli va burjli mudofaa devori bilan o‘ralgan. Qal’ada 2000-2500 kishi istiqomat qilgan. Devorning janub tomanidagi darvozasi orqali shaharga kirilgan. Shahar darvozasidan uning o‘rta chizig’i bo‘ylab katta ko‘cha orqali ibodatxonaga o‘tilgan va ko‘chaning ikki tomanida 8 ta daha uylari o‘rnashgan. O‘ylar o‘rtasida tor ko‘cha o‘tadi va bu o‘ylarda yashagan aholi hususiyalarini aniqlashda g’ishtlarga tushirilgan tamg’alar qaysi urug’ga mansublikni belgilaydi. Tuproqqa'l'a qurg'onidan topilgan g’ishtlardan tashqari devor rasmlari va arfa chalayotgan ayol surati topilgan bo‘lib bu naqkoshlik va rassomlik sana’ti rivojlanganidan darak beradi. Qadimgi Xorazm madaniyatining yirik tadqiqotchisi S.P.Tolstov ham buni alohida ko‘rsatib o‘tgan: “Xorazm tamomila mustaqil badiiy markaz bo‘lgan, deb ta’kidlaydi.

Qavatqal'a harobalari Ellikqal'a tumanı markazi bo‘lgan Bo‘ston shahri g’arbida joylashgan bo‘lib, bu qala’ada XII-XIII asrlarda hayot gurkirab yashnab turgan. Qal’ada o‘rta asr Xorazm shahri uchun hos feodal qurg'on shahri bo‘lgan. Qal’aning ichki tomanida turli rangda tushirilgan, xilma-xil naqshlar bilan bezatilgan katta saroy binosi bo‘lganligi topildi.

Xorazm arxeologiya va etnografiya ilmiy ekspeditsiyasi xodimlari tekshirishlari natijasida Qavatqal'a qo‘rg'onining tevarak atrofida mayda er egalari bo‘lgan dehonlarning turar joylar va pastak paxsa devorlar bilan o‘rab olingan chorborg’lari topilgan. [4]

Qadimiy Xorazm va Qaroqalpog'iston hududida joylashgan qo‘hna qal‘alar tarixi, madaniyati, qal'a qurilishi, me’morchiligi o‘zining jozibadorligi, jahon xalqlari madaniyatiga va taraqqiyotiga qo‘shgan muhim hissasi alohida o‘rin tutadi. To‘rtkul va Ellikqal'a tumanlari hududida joylashgan bir qancha eski qo‘rg'on qal’alarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va bugungi kundagi ushbu qal'a qo‘rg'onlarning holati haqida bosh qotirishimiz kerak.

Xalqimizning qadimiy va navqiron tarixini bir-biriga tutashtirib turuvchi qo‘hna qal‘alar diyorilar obidalari har qancha ardoqlasa, kelajak avlodlarga etkazish uchun avaylab asrasa dunyo madaniyati xazinasidan munosib o‘rin olishiga shubha yuq.



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍNDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

Foydalangan adabiyotlar:

1. Turmanov.J . Kuyuk qal'a o'rta asr yodgorligi, "Istoriya i material'naya kul'tura Karakalpakstana" UzAN KKO, Institut istorii, arxeologii i etnografii.N.2006 g, s 41-42.
2. S.Kamalov. «Qaraqalpaqlardıń xalıq bolıp qáliplesiwi hám onıń mamlekethiliginin tariyxınan» O'zRFAQQB, «Xabarshı» jurnaliga iloba. N.2001 y, 14 b.
3. B.Turganov. «Xorazmning o'rta asr shaharlarida me'morchilik bilan bog'liq hunarmandchilik sohalari» Gorod i gorodskaya kul'tura v yujnom priaral'e: istoriya i perespektivi. UzAN KKO, Karakalpaksiy nauchno-isledovatel'skiy institut gumanitarnix nauk. Prilожение №3 журнала "Vesnik" KKO AN RUz .N.2017 g, s 48
4. T.Qilichev. «Qo'hna qal'alar diyori» Toshkent «O'qituvchi» 1993 y.